2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 203 (992), 2023-yil 4-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI

ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLAR MAQSADI

HAR BIRIMIZDA YARATUVCHANLIK SHIJOATINI UYG‘OTADI

Bugun axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib, makon va zamon chegaralarini yo‘qqa chiqardi. Qadriyat va asriy an’analar, dunyoqarashlar evrilish jarayonida. Dunyo xalqlari ana shunday murakkab va jadallik kasb etgan taraqqiyotga mos ravishda o‘z yo‘lini topishga intilmoqda.

Ana shunday taraqqiyotga mos ravishda O‘zbekiston ham jahonda o‘z o‘rni, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan mamlakatlar safida harakat qilyapti. Nuktadon ta’bir bilan aytganda, dunyo maydonida va o‘z azmida qoyim turmoq, maqsadga erishmoq uchun muttasil oldinga intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish talab etilayotir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi teran mazmunmohiyati, ko‘lamdorligi, istiqbolli maqsad va vazifalarni aniq-tiniq belgilab bergani bilan ana shu qat’iyat va sobitlikni yana bir bor tasdiqlagan hujjat bo‘ldi.

Strategik maqsad – insonning qadr topishi

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatiga teran nazar tashlasak, ular tub zamirida xalqimiz rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishishi, yangi jamiyat qurish, yurtimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘vor maqsad-muddaolar yotganini yaqqol anglaymiz. Davlat siyosati markazida esa inson va uning manfaatlarini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu bir yoki ikki yillik siyosat emas, muntazam davom etadigan, strategik maqsad ekani 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, ularda belgilangan maqsadli chora-tadbirlar misolida oydinlashdi.

Davomi 3-betda

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

UMUMIY MAS’ULIYAT HAQIDAGI BILIM

insonlarni o‘zi va boshqalarning huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar hamda munosabatlarni ilgari suradi

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning zamonaviy huquqiy asoslari yaratilgan va bu jarayon davr talabidan kelib chiqib, izchil takomillashtirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham bu boradagi ustuvor vazifalar o‘z ifodasini topgan.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zosi sifatida faol harakati, Tashkilotning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari hamda inson huquqlari masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachilar bilan yaqin hamkorligi ayni yo‘nalishdagi ishlar rivojida muhim omil bo‘layotir.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta’lim dasturi qabul qilinishi bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu huquqiy hujjat mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’limni yanada rivojlantirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda dasturilamal bo‘lmoqda.

Inson huquqlarini faqat bu boradagi bilim va ko‘nikmalarni tarqatish orqali amalga oshirish mumkin. Unda barcha insonlarni o‘zi va boshqalarning huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar, e’tiqod va munosabatlar ilgari suriladi. U har bir shaxsning har qanday jamiyatda inson huquqlari hayotda amalda bo‘lishidagi umumiy mas’uliyati haqidagi tushunchani rivojlantiradi.

Davomi 3-betda

NUQTAYI NAZAR

TILAK YAGONA, ISTAK EZGU, NIYAT POKIZA...

Dunyo kiprikdagi yosh kabi qalqib turgani bor gap. Atrofdagi voqeliklarni kuzatib, tinch yurtda yashayotganingga shukrona keltirasan. Halovatda yashashning bir uchi qo‘shningning uyidagi osoyishtalikka bog‘liq ekanini chin dildan his qilasan. Sen yumshoq yostiqda orom olayotgan bir paytda dunyoning qay burchagida boshpanasiz, ochlik azobini chekayotgan bolajon borligi, erta azonda omon uyg‘onishi gumon bo‘lgan ona hadik bilan tunni qarshi olayotgani, bir hovuch suv uchun bor bisotini berishga tayyor odamlar yashayotgani haqida o‘ylasang, yuraging uvushadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda aylanayotgan shunday lavha ko‘z o‘ngingdan o‘tadi: yosh mutaxassis qurg‘oqchilik hukm surayotgan hududga borib, jajji qizaloqqa qadoqlangan idishdagi suvni tutadi. Chanqog‘ini qondirish chog‘ida qizaloqning ko‘zidan tomchi-tomchi yosh oqadi. Ovqat, non, yegulikni qo‘ya turing, bu yaqin orada u to‘yib suv ichmagan. Eti ustuxoniga yopishib ketgan olti yoshlar chamasidagi bola ojiz qo‘lini cho‘zadi, yig‘lay desa, yig‘lashga-da madori yo‘q. Ana, yana bir tomonda uryiqit, to‘polon, o‘q ovozi, go‘daklar ohi...

Davomi 5-betda

BOQIY MEROS

YOXUD QATAR ISLOM SAN’ATI MUZEYIDAGI ENG NOYOB EKSPONATLAR

Dunyodagi bir qancha yirik muzeylar, kutubxonalar, shaxsiy to‘plamlarda O‘zbekiston tarixiga oid yig‘ilgan noyob ashyolar majmuasini turli kolleksiyalarga ajratish mumkin. Ushbu noyob moddiy-madaniy meros ajdodlarimiz yaratgan nodir qo‘l mehnati namunasi ekani va dunyo madaniyati rivojlanishida katalizator vazifasini bajargani bilan ham qadrlidir. Bugungi tadqiqotlarda temuriylarga oid ashyolar Rossiya, Yevropa va Arab davlatlari muzeylari, shaxsiy kolleksiyalarda ham mavjudligi aniqlangan.

Davomi 6-betda

BUGUNNING GAPI

QARS IKKI QO‘LDAN CHIQADI

1998-yili Germaniya Federativ Respublikasida ba’zi sohalar, jumladan, ta’lim jabhasini o‘rganish uchun jurnalistik safarda bo‘lganman. Ochig‘i, o‘shanda u yerdagi maktablarda erkak o‘qituvchilarning bizdagidan ancha ko‘pligi hayratlantirgan. Sababini surishtirganimda, birinchidan, o‘qituvchining maoshi kam emasligini, ikkinchidan, hamma yerda maktab borligi uchun oson ish topilishini aytishgan. O‘ylab qarasam, o‘tgan asrning 60-yillarida maktabda o‘qigan biz tengilarga, asosan, erkaklar ta’lim bergan.

Davomi 5-betda

MUNOSABAT

Markaziy Osiyo — Germaniya: BARQAROR VA IZCHIL TARAQQIYOT YO‘LIDA

Bugun jahon iqtisodiyotining turli sohalarida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydigan Germaniya O‘zbekistonning Yevropadagi ishonchli va istiqbolli savdo-iqtisodiy hamkori. U O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan va diplomatik aloqalarni o‘rnatgan davlatdir.

Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Xususan, iqtisodiyot, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, transport-logistika, qishloq xo‘jaligi, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va atrof-muhit muhofazasiga bo‘lgan intilishlari o‘xshashdir. Mintaqaviy hamkorlik borasidagi munosabatlar ham faollashib bormoqda.

Davomi 2-betda

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

MUNOSABAT

Markaziy Osiyo — Germaniya: BARQAROR VA IZCHIL TARAQQIYOT YO‘LIDA

Farhod AHRORO‘V,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga bu galgi amaliy tashrifi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash yo‘lida navbatdagi muhim qadam bo‘ldi, deyish mumkin.

Avvalo, ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo — Germaniya formatidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalar, “yashil” energetikani rivojlantirish, shuningdek, iqlim o‘zgarishlariga qarshi birgalikda kurashish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi jihatlarda ko‘zga tashlanayotir. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari Yevropa Ittifoqining suv, energetika va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tashabbuslariga qiziqish bildirmoqda. Shu bois, oliy darajadagi uchrashuvlarda Yevropa bilan aloqalarni mustahkamlash borasidagi kelishuvlar xususida fikr almashildi.

Ushbu hamkorlik Germaniya uchun ham muhim bo‘lib, malakali ishchilarni jalb qilish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari bilan migratsiya kelishuvlarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bu kelishuvlar Germaniyada ishchi kuchi tanqisligini yumshatish bilan birga Markaziy Osiyoda ishsizlik darajasini pasaytirish imkonini berishi mumkin.

Keyingi yillarda O‘zbekiston — Germaniya savdo aylanmasining ortib borayotgani mintaqaga qiziqish va hamkorlik yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Import ham, eksport ham o‘sdi. Bu esa mintaqaning nemis biznesmenlari uchun jozibadorligini anglatadi. Bundan tashqari, dunyodagi mavjud vaziyat nemis kompaniyalarini O‘zbekistonni jozibador mamlakat sifatida qayta kashf qilishga undamoqda.

So‘nggi to‘rt yilda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki barobardan ziyod oshdi. Ushbu ijobiy tendensiyani mamlakatimizda xorijlik investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, iqtisodiy islohotlar bilan izohlash mumkin.

Prezidentimizning Germaniyaga amaliy tashrifi davomida siyosiy, iqtisodiy hamkorlik borasida qator muzokaralar o‘tkazildi. Pirovardida hamkorlikning yangi istiqbollari, jumladan, “yashil” energetika, “yashil” iqtisodiyot, resurslardan oqilona foydalanish, ta’lim sohalarini rivojlantirish masalalarida kelishuvlarga erishildi.

Germaniya ko‘p sohalarda yetakchi davlat sanaladi. Demak, Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo‘mitasi shafeligida tashkil etilgan Iqtisodiy forum ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishda qo‘l keladi. Shu bois, bunday forumlarni muntazam o‘tkazishdan manfaatdormiz.

Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Germaniya yetakchi ishlab chiqaruvchilarining yuqori sanoat texnologiyalari bo‘yicha Markaziy Osiyo ko‘rgazmasini o‘tkazish taklifini bildirdi. Bu ko‘rgazma Germaniya sanoatining ilg‘or, eng so‘nggi namunalarini O‘zbekistondagi iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ko‘rsatish imkonini berib, nafaqat iste’mol va kapital bozorini, investitsiyaviy muhitni rivojlantirish, balki yangi-yangi texnologiyalarning iqtisodiyotimizga kirib kelishi va barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Germaniya va Markaziy Osiyo hamkorligining doimiy formatini tashkil qilish, bu formatning huquqiy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘zaro ko‘p tomonlama bitimni shakllantirish hamda imzolash taklifi ham ilgari surildi va bu tashabbus ishtirokchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Tashrif doirasida bu mamlakat yetakchi ishbilarmon doira vakillari bilan ham har tomonlama samarador kelishuvlarga erishildi. Umuman olganda, Germaniya rasmiylari mamlakatimizdagi islohotlarni e’tirof etdi va nemis kompaniyalari hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor ekanini yana bir bor ta’kidladi.

Qayd etish joizki, Germaniyaning Markaziy Osiyo bilan hamkorligi uning tashqi siyosatidagi strategik o‘zgarishlarni aks ettiradi. Chunki u o‘zining iqtisodiyot va energetika sohasidagi hamkorligini diversifikatsiya qilish hamda muhim geosiyosiy ahamiyat va boy resurslarga ega davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intiladi. Markaziy Osiyoning esa Germaniya va Yevropa uchun qimmatli hamkor sifatidagi salohiyati ortib bormoqda.

AKADEMIK NAZAR TO‘RAYEV

O‘zbekiston ilm-fani og‘ir judolikka uchradi.

Fizikaviy elektronika sohasidagi yirik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Nazar Yo‘ldoshevich To‘rayev 2023-yil 3-oktabr kuni 85 yoshida vafot etdi.

Nazar To‘rayev 1938-yil 19-mayda Surxondaryo viloyatining Denov shahrida tug‘ildi. 1961-yili Samarqand davlat universitetini tamomlab, mehnat faoliyatini Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida kichik ilmiy xodim lavozimida boshladi. Zahmatkash olim o‘zining 60 yillik mehnat faoliyati davomida Yadro fizikasi instituti aspiranti, Elektronika instituti ilmiy kotibi, Toshkent politexnika instituti kafedra mudiri, Termiz davlat universiteti rektori, Fanlar akademiyasining “FANUM” ilmiy-o‘quv markazi direktori kabi mas’ul lavozimlarda samarali faoliyat ko‘rsatib, mamlakatimiz ilm-fan sohasini taraqqiy ettirish, yetuk kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo‘shdi.

U 1968-yilda nomzodlik, 1981-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2000-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining a’zosi etib saylandi.

Nazar To‘rayev mamlakatimiz va xalqaro ilmiy jamoatchilik o‘rtasida fizikaviy elektronika yo‘nalishida maktab yaratgan olim sifatida katta hurmat va e’tiborga sazovor bo‘ldi.

Fidoyi olimning fizikaviy elektronikaning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalari, monografiya va o‘quv-metodik qo‘llanmalari chop etilgan.

Mehribon va jonkuyar ustoz sifatida ko‘plab yoshlarga ilm-fan asoslaridan saboq bergan. Uning rahbarligida 10 nafardan ortiq fan doktori va 20 nafarga yaqin fan nomzodlari tayyorlandi.

Nazar To‘rayev jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. 1990-1995-yillarda mamlakatimiz parlamenti deputati sifatida milliy mustaqilligimizning huquqiy poydevorini mustahkamlashda jonbozlik ko‘rsatdi.

Akademik Nazar To‘rayevning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Nazar To‘rayevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, B. YO‘LDOSHEV

HUDUDLAR HAYOTI

“ASRIMIZ ILM-U HUNAR, HARAKAT ASRIDUR”

Namangan viloyatining to‘ng‘ich tumanlaridan biri To‘raqo‘rg‘on rasman 1936-yilda tashkil topgan bo‘lsa-da, tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat yozib qoldirgan ma’lumotlarga qaraganda, u XV asrda Dashti Qipchoq xoni Ahmadxon tarafidan barpo etilib, Qal’aixon nomi bilan dovruq qozongan. To‘raqo‘rg‘on yaqin-yaqingacha agrar tuman sanalardi, bugun esa tadbirkorlik, hunarmandlik, sport, madaniyat, ta’lim rivojlangan hududga aylangan.

Tumanning 67 ta mahallasida o‘zbek, tojik, qirg‘iz, rus, qoraqalpoq, tatar millatlari vakillari o‘zaro do‘st, inoq, hamjihat yashab kelmoqda. 62 ta umumta’lim maktabi bor. 43 ta davlat va 250 dan ziyod oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotida bog‘cha yoshidagi bolajonlarning 86 foizi qamrab olingan, 38 ta davlat va xususiy shifoxona faoliyat yuritmoqda.

— E’tirof etish joizki, tumanimiz markazi Prezidentimizning 2016-yil 2-noyabrdagi viloyat saylovchilari bilan uchrashuvidan so‘ng tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi, — deydi tuman hokimi Ahrorbek Mansurov. — O‘shanda davlatimiz rahbari Is’hoqxon To‘ra Ibrat haqida alohida to‘xtalib, unga atab muhtasham bog‘ yaratish, yodgorlik majmuasi va ijod maktabi tashkil qilish yuzasidan taklif bildirdi. O‘sha taklif asosida 2,2 gektar maydonda fayzli majmua barpo etildi va tumanga tashrif buyuruvchilar uchun muqaddas qadamjoga aylandi. O‘tgan yili Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti ham faoliyat boshladi.

To‘raqo‘rg‘on Asiriddin Axsikatiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mulla Shamsi Shavqiy, Hayrat To‘raqo‘rg‘oniy, Is’hoqxon Ibrat singari allomalarga beshik bo‘lgan, ikki nafar O‘zbekiston Qahramoni yetishib chiqqan, kuragi yerga tegmagan To‘ychi polvon, Karim chavandoz, mahoratli futbolchi, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi Umarali Rahmonaliyevlar diyori. “Yilning eng namunali mahalla yetakchisi” tanlovining mamlakat bosqichida tumanning Shohidon mahallasi yoshlar yetakchisi Muhammadyusuf Xolmatov 3-o‘ringa munosib ko‘rildi.

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari ijobiy natijalarga boy. 2022-yil yakuni bo‘yicha qator sohalarda o‘sish kuzatildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish hajmi 117,8 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish 104,7 foiz, pudrat ishlari 113,5 foiz, chakana savdo aylanmasi 111,5 foiz va xizmatlar sohasi 114,7 foiz uddalandi.

Aholi muammolari doimiy e’tiborda. Tuman sektor rahbarlari xonadonma-xonadon yurib, murojaatlarni atroflicha o‘rganib, bartaraf etish choralarini ko‘rmoqda.

— Oilaviy sharoitim og‘ir, ancha yillar bir xonali eski uyda yashadim, — deydi Isvaxon mahallasida yashovchi Yulduzxon Zokirova. — Yaqinda mutasaddilar barcha qulayliklarga ega to‘rt xonali uy qurib berdi. Oktyabr oyida hovli to‘yi qilmoqchiman. Biz kabi imkoniyati cheklanganlarga g‘amxo‘r Prezidentimiz va barcha mas’ullardan minnatdorman.

Tumanda yangi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilish hamda biznes rejalar tuzish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash qizg‘in jarayonda. Joriy yilda 450 ta tadbirkorlik subyekti ochilib, ular soni

2 ming 577 taga yetdi. Shuningdek, hududiy investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 1126,4 milliard so‘mlik 85 ta loyiha ijrosi bilan 1 ming 430 ta ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan.

— Qanday yutuqlarga erishayotgan bo‘lsak, barchasi e’tibor, imtiyoz va ishonch tufayli, — deydi “Runamteks” MCHJ direktori, “Shuhrat” medali sohibi, tadbirkor Mahfuza Gyumyush. — Faoliyatimizni boshlaganimizga uch yildan oshdi, 400 nafar xotin-qizni ish bilan ta’minladik. “Yoshlar” kichik sanoat zonasidagi yangi binomiz esa Oqtosh mahallasi ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi. Korxonamiz maydoni bir gektar. Yiliga 10 million dollarlik trikotaj mahsulotlarimizni Rossiyaga eksport qilyapmiz. Yana “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga muvofiq, 700 ish o‘rinli monomarkaz tashkil etamiz.

Oltita kichik sanoat zonasi (KSZ) uchun 22 gektar yer maydoni ajratilgan. Mazkur sanoat zonalarida qiymati 253,2 milliard so‘mlik 39 ta loyiha joylashtiriladi. Bu 2 ming 600 ga yaqin kishi mehnat bilan band bo‘ladi, degani. Misol uchun, “Yoshlar” KSZda 64 milliard 150 million so‘mlik 12 ta loyihada

1 ming 275 ta ish o‘rni paydo bo‘ladi. Hozir 119,7 milliard so‘mlik 29 ta loyiha ishga tushirilib, 1 ming 840 dan ortiq aholi ish o‘rniga ega bo‘ldi.

Tumanda eksport hajmi 2010-2016-yillarda o‘rtacha 14,2 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan yili 89,2 million dollarga yetdi. 2023-yilda belgilangan prognoz 158,5 million dollar. Shundan sanoat yo‘nalishida 139,5 million dollar va meva-sabzavot yo‘nalishida 18,9 million dollarlik mahsulotlar eksportga rejalashtirilgan. To‘raqo‘rg‘onda azaldan meva va uzum mahsulotlari yetishtirish rivojlangan va yiliga 56 ming 425 tonna mahsulot tayyorlanadi.

Aytish mumkinki, to‘raqo‘rg‘onliklar giloschilikda ham o‘ziga xos mahoratga ega. Viloyatda yiliga 10,1 ming tonna gilos eksport qilinayotgan bo‘lsa, uning 52,4 foizi To‘raqo‘rg‘on tumani hissasiga to‘g‘ri keladi. Har yili tumanda 8,1 ming tonna gilos yetishtirilib, 5,3 ming tonnasi xorijga sotiladi.

Shu kunlarda yetti gektar maydonda “Gold fresh fruits” MCHJ tomonidan qiymati 13,9 million dollarlik agrologistika markazi tashkil etilyapti. Markazda meva-sabzavot bozori, gilos mahsulotlarini saralash, meva-sabzavotni quritish, mehmonxona xizmati tashkil etiladi va plastmassa yashiklar ishlab chiqariladi. Ayni paytda obyektda 65 foiz ishlar bitgan. Ilk bosqichda 40 ta ish o‘rni yuzaga keldi. Korxona tomonidan 2024-yildan 10 ming tonna qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportga yo‘naltirilib, yiliga qo‘shimcha 15 million dollarlik meva-sabzavot eksporti amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, To‘raqo‘rg‘on uzumchilikda ham ilg‘or tumanlardan. Bugungi kunda tumanda jami ekin maydoni 10 ming 51 gektar, shundan 586,6 gektari uzumchilik xo‘jaliklaridir. Bir yilda 25,9 ming tonna uzum, shundan 13,5 ming tonnasi xonadonlarda yetishtiriladi. Masalan, 590 ta xonadondan iborat Xo‘jand mahallasi drayveri uzumchilik hisoblanadi. Oltiariq tajribasi asosida mahallaning Uzumzor ko‘chasidagi 56 ta xonadonning ko‘cha qismiga so‘ritoklar tiklandi.

Birgina shu mahallaning o‘zida “Kelin barmoq”, “Rizamat ota”, “Husayni”, “Chillaki” navli 104 tonna uzum yetishtirilib, birinchi navbatda, ichki bozorga va qo‘shni davlatlarga sotilmoqda. Mahalladagi usta bog‘bon Komiljon Yusupov uzumchilik va bog‘dorchilikda ko‘chat yetishtirish kursini ochib, 55 nafar ishsiz yigit-qizga kasb sirlarini o‘rgatmoqda. Qolaversa, uzumchilikni yanada kengaytirish maqsadida Prezidentimizning joriy yil 3-fevral kuni Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida dala cheti maydonlaridan unumli foydalanishga oid topshiriqlariga binoan, tumandagi 90 ta paxta, g‘alla va boshqa yo‘nalishdagi fermer xo‘jaliklarining 1 ming 81 gektar karta chetlariga 1,3 ming tup tok ko‘chati ekildi. Ular bir-ikki yilda hosilga kiradi.

Avvallari ayrim zarur oziq-ovqat mahsulotlari me’yor talablari bo‘yicha yetishmasligi va bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash uchun qo‘shni viloyat va tumanlardan olib kelinardi. Aholiga dehqonchilik qilish uchun uzoq muddatli ijaraga yer maydonlari ajratish yo‘lga qo‘yilgach, ahvol o‘nglandi.

— Keyingi uch yilda To‘raqo‘rg‘onda 17 ta maktab, 14 ta maktabgacha ta’lim muassasasi, yettita qishloq vrachlik va oilaviy shifoxona punkti, bitta markaziy shifoxona joriy va mukammal ta’mirlandi, bitta yangi 330 o‘rinli maktab qurildi, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Akmaljon To‘rayev. — 27 ta MFY uchun maxsus ma’muriy inshoot qad rostladi. Shuningdek, 15 ta 512 xonadondan iborat ko‘p qavatli turar joy qurildi.

Bundan tashqari, 13 ta ichimlik suv qudug‘i qazib suv chiqarildi va 570 kilometrga tarmoq tortildi. 2021-yilgacha tuman aholisining yarmigina toza ichimlik suvdan bahramand edi. 2023-yilning sentabr oyiga kelib, bu ko‘rsatkich 83 foizga yetdi. 92 kilometr ichki yo‘llar asfaltlandi, 215 kilometr ichki yo‘lga shag‘al to‘kildi, 25 kilometr umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari ta’mirlandi.

— To‘raqo‘rg‘on qadim va tabarruk makon, unda ichki va tashqi turizm salohiyatini kuchaytirish omillari talaygina. Ochiq osmon ostidagi Axsikent muzeyining o‘ziga qancha sayyohlarni jalb qilsa bo‘ladi, — deydi tuman hokimligi nashri — “Davr” gazetasi muharriri Zohidaxon Kenjayeva. — Sirdaryo sohillarida dam olish maskanlariga talab va taklif baland. Is’hoqxon To‘ra Ibrat majmuasi, Xo‘jakalon Abdulmoniy ziyoratgohi uncha-muncha tarixiy shaharlardagi muborak manzillardan qolishmaydi.

Darvoqe, to‘raqo‘rg‘onliklar mohir chavandoz va uloqchilar sifatida ham mashhur. “Dengiz tulpori” majmuasida uloq-ko‘pkari musobaqalarini muntazam uyushtirish, chavandozlar maktabini ochish, ot sporti yordamida ippoterapiyani yo‘lga qo‘yish juda manfaatli. Bu borada qo‘shni Qirg‘iz Respublikasi Jalolobod viloyatining To‘xtagul tumani bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

Tumanda amalga oshirilayotgan ishlar, sa’y-harakatlar zamirida To‘raqo‘rg‘onni mamlakatga tanitish, shu yo‘l bilan iqtisodiyotini yuksaltirishdek ezgu niyatlar mujassam. Zero, jadid Ibrat domla “Mezon uz-zamon” risolasida yozganidek, “Asrimiz ilm-u hunar, harakat asridur...”.

Orifjon JO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

YANGI O‘ZBEKISTON ORZUSI

ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLAR MAQSADI

HAR BIRIMIZDA YARATUVCHANLIK SHIJOATINI UYG‘OTADI

Ozodbek NAZARBEKOV,
O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan davrda ushbu dasturilamal hujjatlar doirasida yurtimizda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Birgina Harakatlar strategiyasiga muvofiq, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga doir qonunchilik bazasi tubdan yangilandi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlari hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari roli, aholi va jamoat birlashmalari siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar bajarildi.

Men shu o‘rinda inson tafakkuri, hayotiy maslagi, ma’naviy olami, madaniy saviyasini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan tarixiy o‘zgarishlarga diqqat qaratmoqchiman. Gapning sarasini aytganda, mamlakatimizda majburiy mehnatning bartaraf etilgani, “million egatlarga sochilib ketgan” murg‘ak jonlar — bolalarning paxta dalalaridan qaytarib olingani, bilib-bilmay yot g‘oyalarga ergashib ketgan insonlar afv qilingani, har xil bahonalar bilan “zapret”ga tushgan san’atkorlar, ilm-fan, adabiyot va madaniyat namoyandalari nomidan “qora tamg‘a”lar olib tashlangani, oyoqlarga kishan bo‘lgan “propiska” muammosiga barham berilgani keyingi yillarda inson qadrini ulug‘lash, haq-huquqlarini himoya qilish, xalq manfaatlarini ta’minlash yo‘lida olib borilgan ishlarning ayrimlari, xolos. Lekin shularning o‘zi ham minglab insonlar taqdirini o‘zgartirdi, hayotida yangi sahifa ochdi.

Ma’naviyat – jamiyat hayotining joni va ruhi

Har qanday ezgu maqsad inson omili vositasida ro‘yobga chiqadi. Jamiyatdagi rivojlanish xalqning salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Odamlar tafakkuri o‘zgarmaguncha jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyatda ong yuksalmaguncha davlat taraqqiy etmaydi. Binobarin, o‘z ishiga kreativ yondashadigan, bilimli, mas’uliyatni chuqur his etadigan, zamon bilan hamqadam odimlaydigan xalqqina Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasining hayotdagi ro‘yobini ta’minlay olishi mumkin.

Prezidentimiz ijod ahlini “Inson qalbining muhandislari”, deya ta’riflagani bejiz emas. Xoh adabiyot, xoh kino, xoh teatr, bastakorlik, qo‘shiqchilik san’atiga daxldor bo‘lsin, ular yaratgan asarlar kishini ma’nan ulg‘aytiradi, qalbiga ezgu tuyg‘ularni, umuminsoniy tushunchalarni, fazilatlarni joylaydi.

Biz, madaniyat, san’at, ijodkor-ziyolilar o‘z salohiyatimiz, asarlarimiz, mehrimiz bilan xalqimizning ezgu qadriyatlarini yanada boyitish, ongu tafakkurini yangilash, ma’naviy, madaniy saviyasini yuksaltirish, hayot tarzini o‘zgartirishga hissa qo‘shishimiz kerak.

Shu ma’noda, iqtisodiy islohotlar bilan birga madaniy, ma’rifiy, ma’naviy rivojlanishni omixta, uyg‘un olib borish maqsadida qator qonun, farmon va qarorlar, farmoyishlar qabul qilindi. O‘zbekistonning tashqi siyosatida ham ayni yo‘nalish ustuvorlik kasb etib kelmoqda. Buni davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti yig‘ilishlari hamda boshqa oliy darajadagi xalqaro anjumanlarda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Bugun hamkor davlatlar bilan yangi qo‘shma korxonalar ochish, investitsiya jalb etish, ilm-fan, innovatsiyani rivojlantirish bo‘yicha bitimlar imzolashda, albatta, o‘zaro madaniyat kunlarini o‘tkazish, madaniy, adabiy almashinuvlar, teatr, kino, kitobxonlik sohalarida yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishilmoqda.

Zero, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi — ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz.

Darhaqiqat, bugun ma’naviyatning negizini tashkil etuvchi sohalar — ma’rifat, adabiyot, madaniyat va san’atni yanada rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. O‘tgan davr mobaynida mazkur sohalarga doir qator hujjatlar qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlandi. Xususan, “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ilk bor O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Prezidentning “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu bilan sohaning mutlaqo yangi strategiyasiga asos yaratildi. Madaniyat va san’at xodimlari kuni belgilanib, keng miqyosda nishonlanadigan bo‘ldi.

So‘nggi yillarda aholi, ayniqsa, olis hududlarda yashaydigan fuqarolarga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasi oshirildi, respublikaning barcha joylarida ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi.

Maqom va baxshichilik, “Lazgi” raqsi, askiya san’atini rivojlantirish va uni xalqaro miqyosda targ‘ib etish bo‘yicha anjumanlar o‘tkazilmoqda. Teatrlar faoliyati qo‘llab-quvvatlanmoqda.

San’atkorlar uchun qulay ijodiy muhit yaratish hamda ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi konsert, madaniyat saroylari va boshqa muassasalarda to‘liq jonli ijro asosida o‘tkaziladigan konsert-tomosha tadbirlari uchun ijara to‘lovi 50 foizga kamaytirildi. Opera, simfoniya, oratoriya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar, xususan, estrada bo‘yicha yangi musiqa asarlari yaratish, eng yaxshi milliy qo‘shiqlarni karaoke yordamida ijro qilish uchun qayta ishlash bo‘yicha davlat buyurtmalari berish yo‘lga qo‘yildi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish litsenziyasi uchun davlat bojini undirish va ushbu litsenziyaga ega shaxslarni soliqqa tortish tizimi takomillashtirildi. San’atkorlar uchun qulay ijodiy muhit yaratish maqsadida litsenziya asosida amalga oshiruvchi ijrochilarning reyting guruhlari soni amaldagi 6 tadan 3 taga qisqartirildi.

2022-yildan boshlab konsert-tomosha faoliyatida yangi loyihalar asosida ta’lim muassasalarida lektoriy-konsertlari, hududlarda “Madaniyat karvoni” hamda “Madaniyat kunlari” tadbirlari tashkil etib kelinmoqda. Zotan, bugungi murakkab globallashuv davrida, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, qadriyatlarga putur yetkazayotgan bir sharoitda milliy madaniyatni rivojlantirish orqali jamiyatda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash ayni muddaodir.

Tarixiy dasturilamal hujjat

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi xalqimizning erkin va farovon, qudratli davlat barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Strategiyada barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoit yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash asosiy g‘oyalar sifatida belgilandi.

Ana shu ezgu yo‘lda barcha sohani qamrab olgan keng ko‘lamli islohotlar qatori ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ham qator maqsadlar belgilandiki, ularning hayotiy tatbiqi azaliy orzu-umidlarimiz ro‘yobiga xizmat qiladi.

Xususan, hujjatga muvofiq, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash, shu asosda ma’naviy tarbiya uzviyligini ta’minlash maqsad qilingan. Qolaversa, ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy etish, xalqimiz milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni qo‘llash, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Endilikda o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatish yanada kengaytiriladi.

Strategiyada zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish maqsadida ham qator chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, 40 ta teatr binosini ta’mirlash va jihozlash, 6 ta yangisini qurish ko‘zda tutilmoqda. Sohadagi o‘zgarishlar natijasida davlat teatrlariga tomoshabinlarning yillik tashrifi keskin oshib, 5 millionga yetkaziladi. Bundan tashqari, 2 ta yangi qo‘g‘irchoq teatri tashkil etiladi. Zamonaviy teatr va sirk san’ati yo‘nalishida xalqaro hamkorlik yangi bosqichga olib chiqiladi.

O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish ham ko‘zlanmoqda. Maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo‘nalishlarida kamida 10 ta xalqaro festival va anjumanlar o‘tkazilishi bu boradagi rejalarga qanot bo‘ladi. Sohada kadrlar salohiyati yanada oshiriladi. Ta’lim berishga kamida 20 nafar yuqori malakali xorijiy mutaxassis jalb qilinadi.

Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyat ham yanada takomillashtiriladi. Bu yo‘lda soha bo‘yicha faoliyat yurituvchi institutlar arxividagi 3 mingdan ortiq material zamonaviy formatga o‘tkazilishi muhim o‘rin tutadi.

Kelgusida kamida 3 ta noyob nomoddiy madaniy meros namunasini UNESCO ro‘yxatiga kiritish, 30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish, 158 ta madaniy meros obyektini asrashga doir ishlarni bajarish maqsad qilinmoqda.

Ikki yarim million muzey ashyosi raqamlashtirilishi ham madaniy merosimiz yanada ommalashishiga imkon beradi. Natijada muzeylarimizga yurtimiz va dunyo miqyosida qiziqish ham, e’tibor ham kuchayadi. Ularga tashrif buyuruvchilar soni ortadi.

Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini ravnaq toptirish — strategiyada belgilangan asosiy maqsadlardan biri. Ularga erishish uchun 2024-2030-yillarda 432 ta ta’mirtalab madaniyat markazida xususiy sektorni jalb qilgan holda qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlari amalga oshiriladi. 13 ta Bolalar musiqa va san’at maktabi jihozlanadi, to‘garaklar soni 7 mingtaga yetkaziladi.

Hududlarning madaniyat va istirohat bog‘larida 64 ta zamonaviy yozgi kinoteatr va 24 ta kitob-kafe faoliyati yo‘lga qo‘yilishi aholining mazmunli dam olishini ta’minlash bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, yosh iqtidorlarni kashf qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Dasturilamal hujjatda belgilangan istiqbolli chora-tadbirlar, qayd etilgan hayotbaxsh maqsadlar yurtdoshlarimizni bugungi kunda erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, porloq kelajak tomon yanada dadil qadamlar tashlashga undaydi. Binobarin, yurtimizdagi islohot va o‘zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydigan tus oldi. Eng muhimi, islohotlar natijadorligi hammamiz uchun bosh talabga aylanib bormoqda. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi. Islohotlar nafaqat hayotimizni o‘zgartirmoqda, balki odamlarning qalbiga, yuragiga kirib bormoqdaki, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yangi O‘zbekiston orzusi bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarning yaqqol ifodasidir.

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

UMUMIY MAS’ULIYAT HAQIDAGI BILIM

insonlarni o‘zi va boshqalarning huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar hamda munosabatlarni ilgari suradi

Olim MATCHANOV,
IIV Akademiyasi kafedra boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, polkovnik

Boshlanishi 1-betda

Yangi O‘zbekistonning ichki ishlar organlari ham yangilanib, takomillashib bormoqda. Shuning uchun ularda inson huquqlari sohasida ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish, bu borada boshlangan islohotlarni davom ettirish, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlarini xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashda kasbiy pedagogika, kasbiy psixologiya, ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar muhim o‘rin tutadi. Xodimlarni ta’lim orqali tarbiyalash vazifasi ularni odob-axloq, nafosat va pedagogika qonunlari asosida xalqqa, ona Vatanga, o‘z burchiga sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning axloqiy, pedagogik va estetik madaniyatini shakllantirish kabilardan iborat.

Prezidentimizning 2023-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab professional va oliy ta’lim tizimida “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” bo‘yicha tegishlicha o‘quv va maxsus kurslar joriy etildi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari va migrantlar huquqlari yo‘nalishlarida faoliyati mazkur shaxslar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkilotlarda o‘quv kurslari va seminar-treninglar tashkillashtirildi. 2023-yil 1-martdan boshlab tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari doimiy ravishda o‘tkazilmoqda.

Shaxsni qiynoqqa solish, unga nisbatan shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qilish orqali ma’naviy, ruhiy, jismoniy zo‘ravonlik, qiynoqning ijtimoiy tabiati uning ijtimoiy xavfliligi bilan aniqlanadi. Shubhasiz, shaxsni qiynoqqa solish, unga nisbatan shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qilish holatlarining oldini olish va unga qarshi kurash huquqiy tomondan tartibga solishni taqozo etadi. Ammo qiynoqning oldini olish va unga qarshi kurashda ushbu ijtimoiy xavfli harakatni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish, uning ijtimoiy xavfliligi, jamiyatga tahdidini o‘rganish zarur bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, qiynoqqa solish bilan bog‘liq vaziyatlarning oldini olish ichki ishlar organlarining ustuvor vazifasi sifatida so‘zsiz tan olinishi va bu borada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlab berish bo‘yicha xodimlar xalqaro standartlar va milliy qonunchilikdagi qoidalar mazmunini o‘zlashtirib, tegishli bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Shu maqsadda tegishli qaror asosida ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish va baholash tartibi o‘rnatildi. Inson huquqlari bo‘yicha ichki ishlar organlari xodimlari uchun inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etildi.

Ilmiy izlanishlarni samarali olib borish uchun ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari inson huquqlari sohasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek, ushbu yo‘nalishda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida “Inson huquqlari” (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari) ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti tashkil etildi.

Davlatning barcha hokimiyat — ijro etuvchi tuzilmalari va ayniqsa, ichki ishlar organlari o‘z vakolatlari doirasida, ma’naviy, ruhiy, qiynoqqa yo‘l qo‘ymaslik orqali inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni ta’minlab berishi, ularni himoya qilish, kafolatlashni amalga oshirishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari oldida fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, qiynoqqa, ma’naviy, ruhiy, jismoniy zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlashda mas’uliyatini kuchaytirish borasida bir qator vazifalarni belgilash mumkin.

Birinchidan, qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qiynoqqa yo‘l qo‘ymaslik sohasida ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolar erkinliklari kafolati mazmun-mohiyatini aholining barcha qatlamlariga yetkazish. Bu borada ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tuzilmalari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qiynoqqa yo‘l qo‘ymaslik ustuvor vazifa yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro tashkilotlar ko‘magida onlayn shaklda seminar-treninglar doirasida keng tajriba almashish va targ‘ib qilish.

Uchinchidan, qiynoqlarga qarshi kurashish bo‘yicha ichki ishlar organlari xodimlarining nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida ular tomonidan milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga rioya etish qoidalarini o‘rganish uchun o‘quv kurslar va fakultativ mashg‘ulotlar tashkil etish kerak.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ichki ishlar organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalarini aholi o‘rtasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va unga rioya qilish tamoyillarini ommalashtirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta’minlash jarayoniga keng jalb etish zarurati yuzaga keldi. Bu vazifani amalga oshirish uchun jamiyatda inson huquq va erkinliklariga hurmat hissi shakllanishi, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari bajarilishi uchun sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo‘yicha malakasini oshirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Zero, ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o‘z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish hozirgi zamonning asosiy talabidir.

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

ORAMIZDAGI ODAMLAR

TADBIRKORLIKNING «oltin davri»

BUXOROLIK ISHBILARMON AYOL TAQQOSI SHUNDAY

Bolaligidan hisobchi bo‘lishni orzu qilgan Dilorom umumiy o‘rta ta’limni tamomlab, talaba bo‘lish maqsadida yurgan kezlari yoshi ulug‘ ota-onasining to‘y ko‘rish istagi yo‘lida barcha orzularini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Odatda shu tarzda boshlangan hayotiy hikoyalar yosh ayolning ko‘rgan qiyinchiliklari, chekkan iztiroblari bilan davom etadi. Ammo bugungi qahramonimizning faoliyati, hayot yo‘li, maqsad sari intilishi havas qilsa arzigulik.

O‘n bir farzandi bor ziyoli oilaga kelin bo‘lgan Dilorom Fayziyeva turmush o‘rtog‘i va qaynonasi bilan orzulari haqida o‘rtoqlashadi. Shunda oila a’zolari uning o‘qishi, shaxsiy rivojlanishi uchun qo‘ldan kelgancha yordam berishi, qo‘llab-quvvatlashini aytadi. Ayniqsa, qaynonasining “Agar o‘qisangiz, nevaralarim ham o‘qimishli, keng fikrli inson bo‘lib ulg‘ayadi”, degan gapi unga katta kuch beradi. Qiziqishi asosida hisobchi-iqtisodchi mutaxassisligini egalladi. Faoliyatini Buxoro shahrida joylashgan korxonada yordamchi hisobchi bo‘lib boshlaydi.

Maqsadga erishishning eng qiyin yo‘li

1990-yil, ko‘plab korxonalar inqirozga uchragan payt. Jumladan, u faoliyat yuritayotgan korxona va unga qo‘shni bo‘lgan kiyim-kechaklar ishlab chiqarish kichik korxonasida ham mana shunday iqtisodiy tanglik kuzatildi. Ko‘pchilik yangi biznesga qo‘l urish u yoqda tursin, boshlab qo‘ygan ishini ham davom ettirishga ikkilanib, qo‘rqib turgan vaqtda D.Fayziyeva tavakkal qiladi. Tikuvchilik korxonasi rahbarligini zimmasiga oladi. Ishbilarmon bo‘lish azobga aylangan, unga qo‘l urganlarning aksariyati kasodga uchrayotgan davrda qo‘rqmay maydonga kiradi.

— Maqsadimga erishishda, asosan, eng qiyin yo‘lni tanlayman, — deydi u. — Chunki mana shu yo‘lda raqobatchilar kam bo‘ladi. Ammo katta tajriba olasiz. Iqtisodiy ahvoli og‘ir korxonada ish boshlaganim menga dars bo‘lgan. Biznes olamining haqiqiy qiyinchiliklarida toblanganman. Keyinchalik, 1994-yilda “Feruzbek” kichik tikuv korxonasini tashkil qildim. Dastlab mahsulotimizni yirik eksportchilar orqali Rossiyaga jo‘nata boshladik. Keyinchalik o‘zim eksport qilishga qiziqdim. Bu borada turmush o‘rtog‘im eng yaqin maslahatgo‘y, yordamchi bo‘lgan. O‘zi chet davlatga borib, sharoitni, talabni o‘rganib, ular bilan shartnoma tuzib kelgan. Shu bilan bizning eksport sohasidagi birinchi biznesimiz boshlangan. Ammo kutilgan natijaga erishganmiz, deya olmayman.

Panada yurish odatga aylangan edi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tayanch kuchi sifatida aholi bandligi va hayot tarzini yaxshilovchi muhim tarmoq sanaladi. Shu bois, rivojlanishni ko‘zlagan har bir mamlakat ularni qo‘llash, erkin faoliyat yuritishi uchun kengroq qulayliklar yaratishga katta e’tibor qaratadi. Sohada yaratilgan imkoniyatlardan o‘rinli foydalangan tadbirkor 2000-yildan boshlab kredit mablag‘lari hisobiga faoliyatini kengaytiradi. Ammo bu jarayon oson kechmaydi. Qanchadan-qancha vaqt, asab zoye ketadi. Bir necha yil urinib, korxona tashkil etadi. Ammo bu boradagi qiyinchiliklar shu bilan yakun topmagan edi.

— Uzoq yillik tadbirkor sifatida aytishim mumkin, o‘sha vaqtlar bizga yetarlicha e’tibor bo‘lmagan, — deya eslaydi u. — Tadbirkorman deb ko‘krak kerib yurish qiyin bo‘lgan. Hokimliklar, banklarning eshigi oldiga borib yotishlar boshimizdan o‘tgan. Panada yurish odatimizga aylanib qolgan edi. O‘n yil avval faoliyatimizni kengaytirish maqsadida qurilish mollari korxonasini tashkil qilganmiz. Zarur xom-ashyo, tovarlarni

Toshkentdan olib kelar edik. Poytaxtdan Buxorogacha yuklarimiz ko‘plab tekshiruvlardan o‘tar, qancha qo‘llarga “xamir uchidan patir” berishga majbur bo‘lardik. Yuklar yetib kelgach, ovoragarchiliklar Buxoroda davom etardi. Bir yilda kamida 8-10-marta faoliyatimizga aralashishlar bo‘lgan. Bu deyarli har oy vaqtingiz o‘g‘irlanadi, halovatingiz buziladi, degani. Tekshirgani kelganlarga hamma hujjatni taqdim etasizmi, har bir ishingiz risoladagidek bo‘ladimi, buning farqi yo‘q, albatta, jarima solinar edi. Biz ham majbur, to‘lar edik. Hozir logistika kompaniyalari orqali tovarlar shundoq eshigingiz tagiga keladi. To‘lovlarni ham, hujjatlarni ham telefonda birgina amalni bajarish orqali uddalasangiz bo‘ladi.

> **“ UDDABURON, TADBIRLI D.FAYZIYEVA BUXORO TUMANIDAGI 4 GEKTAR TASHLANDIQ YERNI O‘ZLASHTIRIB, ISSIQXONA HAM BARPO ETDI. ELLIKKA YAQIN ISH O‘RNI YARATILGAN ISSIQXONADA EKSPORTBOP POMIDOR YETISHTIRISH BILAN BIRGA, 300 TUPDAN ORTIQ LIMON HAM PARVARISHLANMOQDA. BU YIL ISSIQXONANING BIR GEKTARIGA BANAN KO‘CHATI EKILDI.**

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-2022-yillarda yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda tizim vakillari huquqini himoya qilish yo‘nalishida 3 mingdan ziyod qonunchilik hujjati qabul qilindi. Biznes vakillariga kredit va subsidiya olish, litsenziya, ko‘chmas mulk va resurslarga ega bo‘lish, eksport kabi masalalarda keng imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo‘yicha mavjud cheklovlar, to‘siq va g‘ovlarning aksariyatiga barham berildi.

O‘z ustida muntazam ishlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga ishtiyoqmand D.Fayziyeva rahbarlik qilayotgan “Fayz qurilish mollari” MCHJda yuzga yaqin odamning bandligi ta’minlangan. Korxonada xalqaro standartlar bo‘yicha ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu yerda printerli buyumlar, polipropilen qoplar, germetik mahsulotlar, shuningdek, sifatli lok-bo‘yoq tayyorlash talab darajasida yo‘lga qo‘yilgan. Ular tashqi bozorda raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi. Bugun bu tirishqoq ayolni viloyat ahli tinib-tinchimas ishbilarmon sifatida yaxshi biladi. Negaki, zamon talablari, bozor va xaridor ehtiyojlarini muntazam o‘rganib borayotgan ayol yangi yo‘nalishlar ustida tinmay ishlamoqda.

Mana shunday mehnatlar samarasida bugungi kunda Buxoro shahri, Buxoro va Kogon tumanlarida “Fayz qurilish mollari” MCHJga qarashli qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 3 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda yuzdan ziyod turdagi qurilishbop mahsulot ishlab chiqarilib, ichki bozordan tashqari MDH davlatlariga ham yetkazib berilmoqda.

Eksport salohiyati faqat yirik korxonaga xos jihat emas

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor iqtisodiyoti talablariga tez moslashib, yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirishda ilg‘ordir. Aynan mana shu jihati — bozor dinamikasiga moslashish tadbirkorlik rivojida muhim.

Biror soha rivoji haqida yoshi ulug‘lar, ancha yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotganlar bilan suhbatlashish qiziq. Aynan ular hozirgi imkoniyatlarni o‘tgan davr bilan taqqoslay oladi. Bu borada xolis fikr bildiradi. Mahsulotni xorijga eksport qilish oson emas. Dilorom opadan bu boradagi yutuqlari samarasi haqida so‘raganimizda gapni imkoniyatlarga burdi.

— Eksport bilan bog‘liq ishlar avvalgi yillardagiga solishtirganda hozir ancha soddalashgan. Ilgari chet elga mahsulot chiqarishni faqat yirik korxonalarga xos jihat deb bilardik. Bugun kichik korxonalar ham bemalol buning uddasidan chiqyapti. Sohaga oid ma’lumotlarni doim kuzatib boraman, o‘tgan yili mamlakatimizda eksport hajmi 19,3 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 13 milliard dollardan ortig‘i kichik va o‘rta biznesda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu katta yutuq. Biznes vakillarining xalqaro maydonda o‘z o‘rnini egallashi uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasi.

D.Fayziyeva tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lgan ayollarga ham ko‘makdosh va yaqin maslahatchi. “Ishbilarmon ayol” ko‘riktanlovi respublika bosqichi g‘olibasi o‘tgan yili “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Cho‘llarga ham fayz kirdi

Tadbirkor oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan bir qancha talabalarga homiylik ham qilmoqda. Buning uchun “Indigo” fondini ta’sis etgan. Fondning maqsadi — iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash. Mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda iqtidorli, bir sohaning rivoji uchun hissa qo‘shadigan, ammo moliyaviy yetishmovchilik sabab shartnoma to‘lovlariga qiynalayotgan talabalarni izlab topib, ularga ko‘mak beradi.

Sardor Nazarov kimyo texnologiyalari yo‘nalishida o‘qishga kirdi, ammo oilasining qo‘li kalta edi. Shuning uchun ham shartnoma pullarini to‘lash qiyinlik qilardi. O‘qishni tashlash niyatida yurgan kezlari Dilorom opani uchratdi. Talaba yigitni o‘ylantirayotgan muammo hal bo‘ldi. Aslida, fond ko‘magidan foydalanib o‘qishini davom ettirayotgan bu kabi talabalar ko‘p. Hozir Sardor Nazarov “Fayz qurilish mollari” MCHJda kimyo texnologi sifatida faoliyat yuritadi.

— Texnolog bo‘lish niyatida o‘qishga topshirdim. Ammo davlat granti asosida o‘qish uchun bilimim ozroq yetmadi, — deydi Sardor. — Moliyaviy ahvolimiz yaxshi emasdi. Qolaversa, ishlab ro‘zg‘orga yordam bermasam bo‘lmasdi. Shu bois, o‘qishni tashlamoqchi edim. Xayriyatki, bunday bo‘lmadi. Ishli ham bo‘ldim. Kimyo texnologi vazifasi zimmamga yuklanganida avvaliga hadiksiradim. Chunki ilgari faqat mavsumiy ishlarda ishlagan edim. Lekin korxona rahbari ishonchini oqlash uchun o‘qib-izlanib, bilimimni oshirib boryapman.

Uddaburon, tadbirli D.Fayziyeva Buxoro tumanidagi 4 gektar tashlandiq yerni o‘zlashtirib, issiqxona ham barpo etdi. Ellikka yaqin ish o‘rni yaratilgan issiqxonada eksportbop pomidor yetishtirish bilan birga, 300 tupdan ortiq limon ham parvarishlanmoqda. Bu yil issiqxonaning bir gektariga banan ko‘chati ekildi.

Bugun yurtimizda tadbirkorlar oldidagi muammo yoki kamchiliklar mamlakat taraqqiyotiga to‘siq sifatida baholanadi. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan har yilgi ochiq muloqoti va unda bildiriladigan fikr-mulohazalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Qahramonimiz ham ochiq, samimiy va amaliy natijasi bilan alohida ajralib turuvchi muloqotni har yili intiq kutishini ta’kidlaydi.

— Davlatimiz rahbari joriy yil tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida “Mamlakatimizda tadbirkorlar zamoni keldi, desam ortiqcha mubolag‘aga yo‘ymang. Chunki hozir dehqonchilikdan tortib ishlab chiqarishgacha, sanoat zanjirini yaratishdan to yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishgacha — barida xususiy tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes vakillarini uchratish mumkin”, deya ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, uzoq yillik faoliyatimni tahlil qiladigan bo‘lsam, hozir tadbirkorlik faoliyatimdagi “oltin davr” sanaladi.

Rivojlanib borayotgan zamon odamlardan u bilan hamnafas bo‘lish, tengma-teng qadam tashlash uchun muttasil izlanishni talab qilmoqda. Bugungi kun tadbirkorlari mana shu talabga monand bir kun bo‘lsada tin olishni, daromadga erishdim, deya soyaga o‘tishni istamaydi. Doim harakatda bo‘lgan “oltin davr” qahramonlari esa o‘zlariga bildirilgan ishonchni ortig‘i bilan oqlashi shubhasiz.

Feruza JO‘RAYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ISLOHOT ODIMLARI

BALIQ YETISHTIRISH HAJMI BESH KARRA OSHDI

Quvasoy shahrining “Qalacha” mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Farg‘ona straus” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligida afrika laqqa baliqlarini boqish yo‘lga qo‘yildi. Bu baliq turlari mahalliy iqlim sharoitiga tez moslasha olishi bilan ajralib turadi. Baliq chavoqlari olti oyda bir kilogrammdan ortiq vazn oladi. Ularni parvarishlash uchun katta suv havzalari talab qilinmaydi. Intensiv usulda bir kvadrat metrdan 400 kilogramm baliq olish yoki 10 million so‘mdan ortiq daromad qilish imkoni bor.

Fermer xo‘jaligida talab va taklif asosida baliqchilik xo‘jaliklari va aholi uchun chavoq yetkazib berish ham yo‘lga qo‘yilgan.

— Ushbu baliq turlarini katta sarf-xarajatsiz yil davomida ko‘paytirish mumkin, — deydi fermer Nusratillo Matkarimov. — Baliqlar harorati 25 darajadan yuqori suvda yaxshi rivojlanadi. Ayni kunda 75 kvadrat metr suv havzasidan intensiv usulda 15 tonna baliq olamiz. Shu maqsadda muqobil suv isitish tizimlari va granulali baliq ozuqasi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik.

Fermer tashabbusi bilan baliqchilik yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagida bo‘lganlar uchun bepul o‘quv kurslari tashkil qilindi. Unda suv havzalarini tayyorlashdan boshlab, mahsulot yetishtirishgacha bo‘lgan jarayonlar qamrab olingan.

Shahardagi “Yuqori muyon” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Nurmuhammad Rahmonov uy sharoitida baliqchilik xo‘jaligi tashkil qilgan yosh tadbirkorlardan. “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida imtiyozli kredit olib, xonadonida 10 ming afrika laqqasini boqsa bo‘ladigan suv havzasi qurdi.

— Bu bir mavsumda 10 tonnadan ortiq mahsulot yetishtirish imkoniyatini bermoqda, — deydi yosh tadbirkor. — Dastlab ish boshlagan vaqtimda kichik havzada mo‘l baliq mahsuloti olishimga ishonmaganlar bo‘lgan. Amaliy natijani ko‘rib, bu ish qanchalik samarali ekaniga guvoh bo‘lgach, mahalladoshlarim baliqchilikni yo‘lga qo‘ydi. Ular bilan mahsulot yetishtirish, ozuqa tayyorlash, kasalliklarning oldin olish, unga qarshi kurashish borasida maslahatlashib ish ko‘ryapmiz. Natijalar yildan-yilga yaxshilanmoqda.

Bundan to‘rt-besh yil oldin Farg‘ona viloyatida nari borsa 10 ming tonnaga yaqin baliq go‘shti yetishtirilgan. Bugunga kelib bu ko‘rsatkich 63 ming tonnaga yetdi. Hozir viloyatda 10 ming 394 gektar suv havzasida baliq boqilyapti.

— Keyingi yillarda tabiiy suv havzalaridan tashqari intensiv, qafas moslamalar, yopiq suv aylanma tizimlari va aholi xonadonlarida tashkil etilgan suv havzalarida baliq yetishtirish ko‘lami oshdi, — deydi viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Kamoliddin Mo‘ydinov. — Joriy yilning

o‘zida bu yo‘nalishda umumiy qiymati 61 milliard 350 million so‘mlik 41 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Buning hisobiga mahsulot yetishtirish hajmi 1 ming 594 tonnaga oshadi, 150 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi. Intensiv usulda baliq boqishni keng joriy etish maqsadida hududlardagi 1 ming 150 gektar (yarim intensiv) suv havzalarida 3 ming 450 dona aerator va oziqlantirish moslamasi o‘rnatildi. Bu samarali usul ortiqcha suv va xarajat talab qilmagan holda mahsulot yetishtirishni uch karra oshiradi. Ya’ni aylanma aeratorlar ko‘l tubini kislorod bilan boyitib beradi. Oziqlantiruvchi moslama esa ozuqalarni butun ko‘l bo‘ylab sochadi. Natijada baliq bir me’yorda oziqlanib, sog‘lom va tez rivojlanadi. 41 ta baliqchilik subyekti quyosh panellaridan foydalanyapti. Bu elektr tarmoqlari yetib bormagan hududlarda ham zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mo‘l va sifatli baliq mahsulotlari olish imkonini bermoqda.

Yozyovon tumani “Yangiobod” MFY hududidagi “Aziz ko‘l” fermer xo‘jaligida 230 million so‘mga umumiy quvvati 9 kilovatt/soat bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatildi. Ishlab chiqarilgan energiya suv havzasiga o‘rnatilgan kislorod bilan boyitish uskunasi — aerator va oziqlantirish moslamalarini quvvatlash uchun yetarli. Natijada 5 gektar hovuzdan avvallari 7-8 tonna baliq ovlangan bo‘lsa, endi 18 tonnaga yetdi.

Bundan tashqari, 3700 gektar sun’iy suv havzasini intensivlashtirish borasidagi loyihalar baliq boqish hajmini oshirish, sifatini yaxshilash imkoniyatini bermoqda. Yana bir muhim jihati, sohaga klaster tizimini joriy etish, vodiy iqlim sharoitiga mos sergo‘sht baliq chavog‘i parvarishlash, tabiiy va sun’iy suv havzalaridan samarali foydalanishga e’tibor oshdi. Masalan, oddiy usulda bir gektar yerda o‘rta hisobda 2-3 tonna baliq go‘shti yetishtirilgan bo‘lsa, intensiv usulda baliq parvarishlash orqali bu ko‘rsatkich 3-4 hissa ortadi.

“Farg‘ona baliqsanoat agro” MCHJ Yozyovon tumanida 1-2 sotix maydonda intensiv usulda 100 tonna baliq boqish loyihasini amalga oshirdi. Oltiariq tumanining Qiziltepa massivida bakrabaliq (osyotr) boqiladigan yopiq suv aylanma tizimi ishga tushirildi.

— Bakrabaliq va chavoqlarini intensiv usulda yetishtirishga e’tibor qaratganmiz, — deydi “Farg‘ona baliqsanoat agro” MCHJ ish yurituvchisi Sanjarbek Teshaboyev. — Yiliga ikki ming tonnadan ortiq baliq yetishtiriladi. Baliq chavog‘i olish, omixta yem ishlab chiqarish, mahsulotni qayta ishlashni yo‘lga qo‘ydik. Markaziy Farg‘ona suv omborining Yozyovon tumani hududida sadok usulida baliq boqish loyihasini ishga tushirdik. Buning hisobiga baliq yetishtirishning yillik miqdori 5 ming tonnaga oshdi, 100 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Yangi usul katta maydon, ko‘p suv sarf qilmay, mo‘l va sifatli mahsulot yetishtirish imkoniyatini bermoqda. Bu yerda ekoturizm rivojiga ham e’tibor qaratilgan. Xo‘jalik havzasi oldida baliq ovlash uchun maxsus joylar tashkil etildi. Aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirishda ham tarmoqning o‘rni oshmoqda. Ayni kunda viloyatdagi 1200 ta xonadonda 4400 tonna baliq yetishtirish borasidagi tashabbuslar ommalashyapti. Baliqchi xonadonlarni zaruriy xomashyo va jihozlar bilan ta’minlovchi 13 ta ta’minotchi kooperatsiya tashkil etildi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

NUQTAYI NAZAR

TILAK YAGONA, ISTAK EZGU, NIYAT POKIZA...

Ziyoda AMINOVA,
Qashqadaryo viloyati hokimi maslahatchisi

Boshlanishi 1-betda

Azim va ko‘hna dunyo ayvonining bir burchagida turib, bu ishlarga nazar solasan. Odamzodning bir-biriga g‘ayirliklariga tabiat ham o‘z “munosabati”ni bildirayotgandek. Kundan-kun iqlim o‘zgarmoqda. Anomal issiq, anomal sovuq, toshqinlar-u to‘fonlar insonlar taqdiriga ta’sir etmasdan qo‘ymaydi. Ana shu kabi keskin o‘zgarishlar ichida bani odam bo‘lib qolish — yuksak maqomga aylandi. Sen tinch bo‘lishing uchun qo‘shning, halovatda yashashing uchun dunyo tinch va hayot xavfsiz bo‘lishi muhim, albatta.

“Jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilmoqda”

Ha, bu gapni yuksak minbardan turib aytish, dunyo afkor ommasini ogohlikka chorlash uchun katta jur’at va qat’iy so‘z kerak. O‘zbekiston Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida dolzarb, har daqiqa yo‘limizdan ko‘ndalang chiqadigan masalalarga jahonning e’tibori qaratildi. Dunyo mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyoning birdamligi va farovonligini ta’minlash bo‘yicha dolzarb va katta ahamiyatga ega tashabbus, taklif va g‘oyalar ilgari surildi. Bu tarixiy jarayonlarni barchamiz yuksak g‘urur bilan kuzatdik.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi — mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda. Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o‘ziga xoslikni anglash tuyg‘usi birlashtirmoqda va bu tuyg‘u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas!”.

Yangi O‘zbekistonning yaqin yillardagi taraqqiyot yo‘liga nazar solindi. Qo‘lga kiritilgan marralarning omili haqida ta’kidlandi. Inson qadri uchun degan bosh g‘oya har bir ish, har bir amalning tub negizini tashkil etmoqda. Buni yangilangan Konstitutsiyaning qabul qilinishi jarayoni ham kundek ayonlashtirdi. Mamlakat fuqarolari bilan kengashildi, istiqbolning oydin yo‘li xalq bilan yaratildi. Ortga qaytmas islohotlarning huquqiy asoslari jamlandi va “O‘zbekiston — 2030” taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Bo‘lar gapni aytayin, bundan bir necha yillar ilgari ham kuz faslini hadik bilan qarshi olar edik. Chunki o‘qituvchi, tibbiyot xodimi, talaba, o‘quvchi, boringki, bilagida kuchi borning joyi, ish o‘rni paxta dalasi bo‘lgan. Endigina akademik litsey o‘quvchisi bo‘lgan singlim uch kun mashg‘ulotda qatnashib, to‘rtinchi kun paxta terimiga jalb etilgan. Katta tugundagi ko‘rpa-to‘shakni boshqa avtoulovga, o‘zini avtobusga joylab, paxtazorga yo‘l olishgan. Borsa, uning to‘shaktuguni yo‘q. To biz holatdan xabar olgunga qadar o‘n-o‘n besh kun dugonasining to‘shagini bo‘lishib, amallab kun ko‘rgan. Oilasidan to‘rt kun nari chiqib ko‘rmagan qiz bola uchun bu oson bo‘lgan, deysizmi? Bu yoqda bizning asabimiz buzilgan, u yoqda singlim alam chekkan... yig‘lab, ozib bir ahvol bo‘lib qolgan. Bu bir holat... Inson qadri degan tushuncha bizdan bir necha chaqirim narida bo‘lgan kezlar ekan o‘shanda. Ta’lim sifati, tibbiyotni rivojlantirish, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish masalasi ishlab chiqilgan reja va dasturlarning eng quyi qismidan joy olar, barcha kuch va imkoniyatlar dalaga safarbar etilardi.

E, shu majburiy mehnat qachon bekor bo‘larkan-a? Qachon o‘qituvchi o‘z kasb bayramini uyida nishonlaydigan kunlar kelarkan, deb qanchalar orzu qilgandik...

Albatta, ayolning o‘qimishli, oqila, zakiy bo‘lishi — millatning eng pok niyatlari uchun dastlabki eshikni ochadi. Axir, u ona, millat tarbiyachisi. Yosh avlod kamolotining asosi, tub negizi. Yurtimizda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, ijod va mehnat qilishi uchun keng imkoniyatlar, qator imtiyozlar joriy qilindi. Birgina Qashqadaryo misolida aytadigan bo‘lsam, oliy ta’limga o‘qishga qabul qilingan talabalarning 50 foizidan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Yakuniga yetgan o‘quv yilida 19 415 nafar talabaning shartnoma to‘lovlari uchun bir yuz sakson besh milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Ahamiyatlisi, ajratilgan kreditlarning bir yuz o‘ttiz besh milliard so‘mi 14 578 nafar talaba qizga foizsiz berildi. Ayni shu kezlarda ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Behbudiyning “Taraqqiy etgan millatlarni onalari o‘qutar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmog‘imiz kerak”, degan hikmatining hayotiy ifodasi ekanini his qilasiz. Yana bir yurakni to‘ldirib aytadigan suyunchi gap, kam sonli davlatlar bu kabi iroda va rag‘bat ko‘rsatadi. Ayolga ehtiromning bu kabi yuksak namunasini ko‘rib, his qilib, ilm barcha mushkulotu tashvishlarning kalitidir, degan dono o‘gitni eslaymiz.

Prezidentimiz o‘z nutqida global masalalar — dunyoda tinchlik va barqarorlik hukm surishi, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, kambag‘allikka barham berish, terrorizm, ekstremizmga qarshi kurashish, afg‘on xalqining taqdiri bilan bog‘liq bir qator dolzarb masalalarni ilgari surdi.

Taklif va tashabbuslarda bir jihatni yaqqol ko‘rish mumkin, ya’ni dunyo xavfsiz va tinch bo‘lsin. Har bir inson hayotdan rozi bo‘lib yashasin. Qobiliyat va iqtidorini namoyon etishi uchun zarur makon, muhit bo‘lishi shart! U qaysi millat vakili bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z huquqlaridan emin-erkin foydalansin, tili, dini va e’tiqodi himoyalansin. Shundagina xalqlarning, mamlakatlarning istiqboli uchun hamkorlik maydoni, birdamlik muhiti bo‘ladi.

Mana uch-to‘rt yildirki, o‘zbek tili nufuzli tashkilotlarning minbarlarida yangramoqda. Amir Temur, Navoiy, Bobur, Qodiriy tilining Birlashgan Millatlar Tashkiloti anjumanida yangrashi — bu armonlar ushalgani, umidlarning ishonchga aylanganidir. Armonlar ushalgani deysizmi? Ha, bir paytlar o‘z yurtida o‘zbek tilida emin-erkin gapira olmagan, yig‘ilish, anjumanlarni o‘z tilida boshqara olmagan xalq uchun bu yuksak marra, tantanadir.

Ma’ruzada insonning haq-huquqlarini ta’minlash ishi umuminsoniy prinsiplarning asosi bo‘lishi haqida ta’kidlandi. Har bir fuqaroning haq-huquqi ta’minlanganini ko‘rsatuvchi omillardan biri, shubhasiz, uning milliy tilidir. Uning qiyofasini saqlab qolguvchi, borligini, borlig‘ini, kimligini, qaysi millat vakili ekanini ko‘rsatuvchi ne’mat, bu — tildir.

Faoliyatim davlat tili masalalariga doir. O‘tgan vaqt mobaynida sohaga oid ishlarni kuzatib, “ichida yurib” shuni anglayapmanki, davlat tili — har bir millat uchun bebaho qadriyat. Uni asrab-avaylash, kelajak avlodga bezavol yetkazish ishi oliy vazifa, har bir insonning burchi avvali bo‘lmog‘i kerak. Bugun o‘zbek tilining dunyo minbarlarida tan olinayotgani, xalqaro nufuzi ortib borayotgani, o‘zbek millatiga hurmat, ehtirom belgisi va mamlakat ertasi uchun yorqin sahifadir.

Bu tarixiy voqealarni, davlatimiz rahbari ilgari surgan taklif va tashabbuslarning mag‘zini chaqib, ulug‘ Alisher Navoiy hazratlarining hikmati yodga keladi: “Ne uchunkim, dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam”.

BUGUNNING GAPI

QARS IKKI QO‘LDAN CHIQADI

Sultonmurod OLIM,
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori

Boshlanishi 1-betda

O‘zim ishlayotganim uchun bir shukronani aytsam: bugun oliy ta’lim sohasida mehnat qilayotganlar kasbidan norozi emas. Chunki maosh ancha ko‘tarilgan. Isboti uchun bir hayotiy dalil keltiraman. Yaqinda mahallamizdagi sartaroshxonada soch oldirdim. Jurnalistligim tutib, ustaning oylik topar-tutarini surishtirdim. Aytgisi kelmadi. Ixtiyori-da. Men ham qo‘ymadim.

— O‘n millionlar topasizmi? — deb so‘radim masalani aniqlashtirib.

— Nima, men sizga professormanmi? — dedi usta.

“Xayriyat-e, — dedim ichimda, — jamiyatda professorga havas qilish boshlanibdi-ku”. Bu — yaxshilik belgisi, ilmning qadri oshayotganini ko‘rsatadi. Ilm qadrini oshirmay turib, mamlakatni taraqqiy ettirishning hech ham iloji yo‘q.

Davlatimiz rahbarining O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida mana bunday deyilgani ham bejiz emas: “Yaqinda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ta’lim sohasidagi islohotlarimiz ushbu nufuzli tashkilotning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg‘un va hamohang ekani e’tirof etilgani barchamizni, albatta, xursand qiladi”.

Darvoqe, bugun professorlarning katta qismi o‘n million so‘mdan ancha ko‘p maosh olayotganini sartaroshga aytib o‘tirmadim.

Davlat va xalq qaysi jabhaga asosiy e’tibor qaratsa, o‘sha soha ravnaq topadi. Har qanday ezgu sa’y-harakat shirin mevasini beradi. Prezidentimiz tabrigida ta’lim-tarbiya sohasida so‘nggi yetti yilda qo‘lga kiritilgan natijalar raqamlarda ifodalandi: “Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug‘imizdir. Ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtda 261 ta yangi o‘rta ta’lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo‘shimcha 700 mingta o‘quvchi o‘rni yaratilganini ta’kidlash lozim”.

Aytgancha, ana shu 212 universitet va institutning 65 tasi xususiy oliy ta’lim dargohi. Shu tariqa xususiy kapital ta’lim sohasiga jadal tarzda jalb etilyapti.

Taraqqiyotning ikki asosiy yo‘li bor. Biri sifat, ikkinchisi esa miqdor ko‘rsatkichi orqali yuz beradi. Sodda aytilsa, ekin yerini ko‘paytirish orqali ko‘p hosil olish mumkin, lekin hosildorlikni oshirish orqali o‘sishga erishsa bo‘ladi. Masalan, o‘tgan yili ikki fermer ham 1 gektarga ekib, 15 sentner (1,5 tonna)dan bug‘doy olgan edi. Bu yil bir fermer 2 gektarga ekib, jami 30 sentner (3 tonna) hosil oldi. Ikkinchi fermer esa o‘sha 1 gektar yerga bug‘doy ekib, ilmiy asosda ish tutib, hosildorlikni oshirdi-da, shu 1 gektarning o‘zida 30 sentner hosil yetishtirdi. Buning birinchisi “ekstensiv usul”, ikkinchisi esa “intensiv usul” deyiladi. Bu yil O‘zbekistonimiz gektaridan o‘rtacha 48,2 sentnerdan g‘alla yetishtirib, dunyoda 8-o‘rinni egalladi, ya’ni bu borada kuchli o‘ntalikka kirdi. Bunga ham aynan intensiv usul hosilasi sifatida qaralishi kerak.

Dunyoda yer osti va yer usti boyliklari ko‘p bo‘lgani uchun rivojlanayotgan yoki tabiiy boyliklari oz bo‘lsa ham odamlar salohiyatini oshirib, samaradorlikka erishish orqali ravnaq topayotgan davlatlar ko‘p. Nefti, gazi ko‘pligi uchun rivojlanayotgan davlatlar bu manbalari tugab qolganidan keyin qanday ahvolga tushishi noma’lum. Ammo yer osti va yer usti boyliklari bo‘lmasa ham inson salohiyatini rivojlantirgan Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar taraqqiy etib boryapti.

Bizda tabiiy boyliklar yo‘q emas. Ammo ular miqdorini kishi boshiga taqsimlaganda, bu ko‘rsatkich hatto yon qo‘shnilarimiz bo‘lmish Qozog‘iston bilan Turkmanistondagidan ham oz. Demak, biz ham Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi inson kapitalini oshirish, kadrlar salohiyati, ya’ni sifatini yuksak darajaga ko‘tarish yo‘lidan borishimiz zarur. Masalan, 2022-yili GFRda yalpi ichki mahsulot jon boshiga 46 ming 20 AQSH dollarini tashkil etdi. Bu bizdagi 2 ming 255 AQSH dollaridan qariyb 20,5 barobar ko‘p. Demak, Germaniyaning bir fuqarosi biznikiga qaraganda 20,5 karra ko‘p mahsulot ishlab chiqargan. Holbuki, hammamizda ham o‘sha qo‘l, o‘sha oyoq bor. Demak, taraqqiyotning asosiy omili odamning sifatini, ya’ni samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bunga esa faqat va faqat ta’limni rivojlantirish orqaligina erishiladi.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari “Avvalg‘i qism”i 18-fasli “Dabiriston ahli zikrida” deb nomlanadi. “Dabiriston” esa “maktab” degani. Ulug‘ mutafakkir muallim haqida: “Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas”, deb yozadi. “Har qanday qattiqqo‘l kishini ham bir bolani ushlab turish ojiz qilib qo‘yadi, ustoz bo‘lsa bir guruh bolaga ilm va adab o‘rgatadi, buning mashaqqatini ko‘z oldingizga keltirib ko‘ring”, deydi yana u. Shundan kelib chiqib, buyuk Navoiy qat’iy xulosa qiladi: “Har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa yetsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur. Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur — Tengri rozidur.

Bayt:

Haq yo‘lida kim senga bir harf
o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin
yuz ganj ila”.

Demak, ustozning shogirdda haqi ko‘p ekan, shogird podshohlikka yetsa ham unga qulluq qilsa, yaxshi bo‘lar ekan. Chunki shogird shayx ul-islom (bugungi muftiy) yoki qozi (bugungi sud raisi) bo‘lsa ham, agar undan ustoz rozi bo‘lsagina Tangri rozi bo‘lar ekan. Bittagina harf o‘qitganning haqini ming ganj (tilla) bilan ham ado qilib bo‘lmas ekan.

Ustozni bundan oshirib ta’riflash qiyin.

Biroq bu gaplar XV asrda aytilgan. Hozir esa XXI asr. Bugun masalaning ikkinchi tomonini ham o‘ylab ko‘rish, aniqrog‘i, ustozdan shogird rozi bo‘lsagina Tangri undan rozi bo‘ladi, tarzida aytish ham mumkin-ku. O‘quvchi va talabalarni zamon kutgan darajadagi kadrlar qilib tarbiyalash uchun muallimlar tinimsiz ishlashi, o‘zini rivojlantirishi zarur emasmi?!

Dunyoning boshqa davlatlari konstitutsiyasida bormi-yo‘qmi, bilmayman, ammo yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘qituvchilar maqomi haqida maxsus modda bor. Konstitutsiyamizdagi bu modda quyidagicha jaranglaydi:

“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Mamlakatimizdagi barcha kasb egalarini muallim o‘qitib, tarbiyalaydi. Shuning uchun bu kasb egalariga davlatning bunday maqom berib, qadrlashi har taraflama e’tiborga sazovor. Bu esa bugun biz, muallimlarni shunga munosib mehnat qilishga undaydi.

INSON QADRI

OTA-ONALARGA ISHONCH VA QUVONCH BAG‘ISHLAYOTGAN “UMID”

Bugungi kunda farzandlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashi shakllanishida maktabgacha ta’lim tashkilotlari alohida o‘rin tutmoqda. Ammo hozirda bu tizimning mazmun-mohiyati butunlay o‘zgardi. Bunday maskanlarda bolajonlarga tarbiya bilan birga, sifatli ta’lim berishga ham e’tibor qaratilmoqda. Ilgari maktabga bormagan bolaning harflarni tanishi hayratlanarli bo‘lgan, bugun esa farzandlarimiz maktabga o‘qish va yozishni o‘zlashtirgan holda borishi oddiy holga aylandi.

Bu, albatta, maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasidir. Ayniqsa, hududlarda zamonaviy davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurilib, foydalanishga topshirilayotgani, bolalar qamrovi ortayotgani ota-onalarni ham mamnun etmoqda. Har bir ota-ona borki, farzandi ana shunday ta’lim-tarbiya maskanlarida tengdoshlari bilan o‘ynab-kulib ulg‘ayishini istaydi.

E’tiborli jihati, sog‘lig‘ida ayrim nuqsoni bor bolajonlar ham bu baxtdan birdek bahramand bo‘lmoqda. Bu esa inson qadri va manfaatlari ulug‘langan yurtda hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasligining yana bir amaliy ifodasidir.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sog‘lom, faol, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish nazarda tutilgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan Zarafshon shahrida homiylik mablag‘lari asosida qurilgan “Umid” reabilitatsiyaga ega davlat ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkiloti aynan shu maqsadda faoliyat olib boradi. O‘tgan yili ish boshlagan ushbu maskanda bir yil davomida 22 nafar bola sog‘lomlashtirildi, davolash, ta’lim jarayoni birgalikda olib borildi. O‘z ishiga sadoqat bilan yondashayotgan mutaxassislarning xayrli mehnatidan ota-onalar ham xursand.

— Ayni vaqtda sog‘lig‘ida nuqsoni bo‘lgan 50 dan ziyod tarbiyalanuvchi reabilitatsiya markazimizda davolanmoqda. Psixolog, defektolog, suzish va jismoniy davolash yo‘riqchilari, ko‘z kasalliklari va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar bolalarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatib keladi. Pedagoglar orasida surdo bo‘yicha mutaxassislar ham bo‘lib, eshitishi va gapirishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim beradi. Reabilitatsiyaga ega ta’lim muassasamizga, asosan, zaif eshituvchi, zaif ko‘ruvchi, nutqida nuqsoni bor, aqliy rivojlanishda orqada qolgan va tayanch harakatida kamchiligi bor bolalar qabul qilinadi. Ular orasida butunlay davo topib, sog‘lom hayotga qaytayotgan bolajonlarni ko‘rib xursand bo‘lamiz. Ota-onalar ham umid bilan keladi va davolash jarayonlarining samarasidan mamnun, — deydi “Umid” reabilitatsiyaga ega davlat ko‘p tarmoqli MTT rahbari Dilafro‘z Fayziyeva.

Ushbu ta’lim tashkilotiga kelgan bolajonlar, avvalo, moslashuv xonasida vaqtini maroqli o‘tkazadi. Chunki bunday vaziyatda bolalarga majburiy muolaja olib borish, ularni stress holatiga solib qo‘yish salomatligi va ruhiyatiga aks ta’sir etishi mumkin. Oiladagi yopiq qobiqda, bir xil turmush sharoitida, faqat oila a’zolarining yordamida yashagan va harakat qilgan bola begona chehralar, yot muhitga o‘rganishi muolaja uchun katta ahamiyatga ega.

Bu yerda har bir bolaga alohida mehr va parvarish, kasalligidan kelib chiqib, alohida muolaja talab etiladi. Har bir tarbiyachi-pedagog, shifokor va psixologlar o‘ta ehtiyotkorlik va mas’uliyat bilan o‘z ishiga yondashadi. Ezgu niyat ila boshlangan xayrli amal, bemor bolalarga ham tarbiyachi, ham ona, ham shifokor bo‘lib faoliyat olib borish o‘z natijasini berayotganini ota-onalar ham e’tirof etmoqda.

— Farzandimning sog‘lig‘ida nuqsoni bo‘lgani sababli faqat oilamizda parvarish qilganmiz. Albatta, uning ham tengdoshlari qatori bog‘chaga borishini juda istardik. Ushbu maskanga qabul qilingandan keyin farzandimda ijobiy o‘zgarishlarni yaqqol seza boshladik. Hozirda muolajalar davom etmoqda. Quvonarlisi, unga mutaxassis pedagoglar tomonidan ta’lim ham berilyapti. Bularning barchasi biz uchun juda muhim va quvonarli, — deydi Sevara Halimova.

Albatta, olis yo‘l bosib, bemor bola bilan shifo maskanlariga qatnash oson emas. Iqtisodiy yetishmovchilik bo‘lsa, yanada mushkul. Har bir bola mehr va e’tibordan, parvarish va g‘amxo‘rlikdan bebahra bo‘lmagan mamlakatimizda bunday sharoitdagi reabilitatsiya markaziga ega ta’lim tashkilotlari qurilib, foydalanishga topshirilayotgani xasta farzandlarini tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan ota-onalarga yanada umid va ishonch bag‘ishlaydi.

Muassasada 2 yoshdan 7 yoshgacha so‘zlashish yoki tayanch harakatlarida nuqsoni bo‘lgan, aqliy rivojlanishda tengdoshlaridan bir oz orqada qolgan va boshqa shu kabi kasalliklar bilan yashab kelayotgan kichkintoylar 10,5 soat davomida muolaja olsa, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ham har kuni 2-3 soat davomida reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad ularni sog‘lomlashtirish, jamiyatga moslashtirishdir.

Hozirda sa’y-harakatlar natijasini salomatligida ancha yaxshi o‘zgarish bo‘lgan, ilgari istak va ehtiyojlarini imo-ishora bilan aytishga harakat qilgan, muolajadan so‘ng esa nutqi orqali tushuntira olayotgan, buyumlarni mustaqil ushlab, bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishni uddalayotgan, aqliy rivojlanishda tengdoshlariga yetib olgan, hatto maktablarda o‘qiy boshlagan bolalarda ko‘rish mumkin.

Inson qadri ulug‘langan yurtimizda yoshi va holatidan qat’i nazar, har bir inson shu aziz Vatanning farzandi, jamiyat uchun kerakli shaxs, uning taqdiri mamlakat taqdiriga daxldor va ularning barchasi imkoniyatlardan foydalanishga, e’tibor markazida bo‘lishga, mehr, saxovat, g‘amxo‘rlikni his qilib, baxtli yashashga haqli. Bu esa davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilayotgan islohotlar va ularning Navoiy viloyatida ham o‘z ifodasini topayotganidan dalolatdir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BOQIY MEROS

Temuriylarga oid MADANIY YODGORLIKLAR

YOXUD QATAR ISLOM SAN'ATI MUZEYIDAGI ENG NOYOB EKSPONATLAR

Dilafro'z QURBONOVA,
tarix fanlari doktori

Davlatimiz rahbarining Qatar davlatiga tashrifi yurtimiz ma'naviy olamida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Jahonning yirik muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston san'ati tarixiga oid ashyolar o'rganilar ekan, Qatardagi boyliklarni ham ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish muzeyshunoslik va san'atshunoslik ilmini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Bu esa tarixni unutmaslik, ajdodlar merosiga faxr-iftixor bilan munosabatda bo'lish omilidir.

Boshlanishi 1-betda

Xususan, Qohiradagi islom asarlari muzeyida Kamoliddin Behzod qalamiga mansub miniatyuralar, Ar-Riyod milliy muzeyida temuriy shahzoda Ibrohim Sultonga tegishli harbiy libos — temir sovut, Qatardagi Islom san'ati muzeyida esa temuriylarga oid qo'lyozmalar, miniatyuralar va moddiy-ma'naviy ashyolar saqlanmoqda.

Tabiiyki, temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotini badiiy hunarmandchiliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini keng miqyosda ayirboshlash va turli mamlakatlardan ustalarni ko'chirib keltirish sohada mushtarak uslub yaratilishiga olib keldi. Bu davrda Eron, Markaziy Osiyo yoki arab mamlakatlari ustalari yaratgan buyumlarni bir-biridan farqlash ancha mushkul edi. Temuriylar davrida turli mintaqalardan kelgan ustalarning birgalikda yaratgan o'ziga xos bezaklari amaliy san'atda ham yangicha ko'rinish kasb etdi. Bugungi kunda ushbu noyob san'at asarlari Qatar poytaxti Dohadagi Islom san'ati muzeyi ekspozitsiyasidan joy olgan.

Bino qadimgi islom me'morchiligi asosida qurilgan bo'lsa-da, o'ziga xos dizaynga ega. Muzey islom san'ati asarlarining yirik kolleksiyasi, ilmiy-tadqiqot



instituti va kutubxonadan iborat. U uch qit'a (Osiyo, Yevropa va Afrika) islom san'atining 1400-yillik tarixini o'zida mujassam etadi. Kolleksiyalar, asosan, VII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrdagi eksponatlardan iborat. U nisbatan yosh muzey hisoblansa-da, nihoyatda boy kolleksiyaga egaligi bilan shuhrat qozongan. Muzeyda 1980-yillarning oxiridan boshlab to'plangan islom san'ati buyumlari kolleksiyasi, shu jumladan, qo'lyozmalar, to'qimachilik mahsulotlari va kulolchilik buyumlari o'rin olgan. Ekspozitsiyada Ispaniya, Misr, Eron, Iroq, Turkiya, Hindiston va Markaziy Osiyodan topilgan yoki keltirilgan ashyolar o'rin olgan bo'lib, dunyodagi eng mukammal islom san'ati kolleksiyalaridan biri hisoblanadi.

Eng ahamiyatli tomoni, muzeyda temuriylar davriga oid ko'plab yodgorliklar ham saqlanadi. Shulardan biri Hirot kutubxonasi an'analariga xos Boysunqur Qur'oni sahifasidir. G'iyosiddin Boysunqur Shohrux Mirzoning o'g'li bo'lib, davlat arbobi, fan, madaniyat va san'at homiysi sifatida muhim o'rin egallagan. Shu bilan bir qatorda, u ajoyib xattot ham bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Boysunqur xattotlikning oltita uslubini (arab xatining asosiy uslublari hisoblangan "muhaqqaq", "suls", "nasx", "tavqe'", "riqo'" va "rayhoni") mukammal o'zlashtirgan. Mashhad shahrida onasi Gavharshodbegimning ko'rsatmasi bilan bunyod etilgan masjidda (Gavharshodbegim masjidi) Boysunqurning dastxati tushirilgan yozuv bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ushbu eksponat bir qancha betlari saqlanib qolgan mashhur Boysunqur Qur'oni (1433-yil tugallangan)dan bir sahifa bo'lib, shaxsan G'iyosiddin Boysunqurning o'zi ko'chirgan, deb taxmin qilinadi. Temuriylar davrida ko'chirilgan Qur'on sahifalari Daniyadagi Devid kolleksiyasida, AQSHdagi Metropoliten san'at muzeyi kolleksiyalarida ham saqlanmoqda.

Zarhal yuritilgan aqiq kosa. Bugungi kunda temuriylar davriga xos bo'lgan nefrit va agatdan yasalgan bir qancha noyob buyumlar Angliya va AQSH muzeylarida uchraydi. Masalan, Britaniya muzeyida Mirzo Ulug'bekka tegishli bo'lgan nefrit piyolalar, AQSHdagi San-Fransisko Osiyo san'ati muzeyida esa Husayn Mirzo nomi yozilgan qizil aqiq piyola saqlanmoqda. Qatardagi Islom san'ati muzeyida ham talaygina sopol

idishlar, aqiq kosalar saqlanmoqda. Aqiq kosaning boshqa joydagilaridan farqi oq rangli bo'lib, zarhal yuritilgan o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Sirtidagi yozuvlarda uni yasagan usta Ahmad ibn Shukrulloh al-Forsiy nomi ham zikr etilgan. Hunarmandlar o'ymakorlik san'atida nafaqat ashyoni sayqallashtirishga, balki ularga hajm va nafislik jihatdan ishlov berishda ham o'z mahoratini ko'rsatgan.

Feruza rangli sirlangan lagan. Sirkor kulolchilik rivojidagi beqiyos yuksalish XIV asr oxiri — XV asr boshlariga to'g'ri keladi. Temuriylar davrida rang-barang bo'lmagan, asosan, muayyan uslubdagi o'ta jo'n geometrik rasmlardan iborat qora sirkoriy naqshli zangori keramika ham keng tarqalgan.

Amir Temur va temuriylar davrida kulolchilikning yangi turi — mahalliy koshindan foydalanish asosida Xitoydan keltirilgan chinniga taqlid paydo bo'ldi. Mahalliy ustalar Xitoy chinnisining texnologik sirlarini bilmasa-da, ajoyib badiiy san'atga erishgan. XV asrda Markaziy Osiyo yoki Eronda yasalgan lagan bilan o'sha vaqtda Xitoydan keltirilgan lagan ranglarining uyg'unligi, bezaklari majmui, ishlanish uslubi jihatidan xuddi bir ustaning qo'lida yasalgandek tasavvur uyg'otadi. Muzeyda ana shunday islimiy bezakli feruza rangli sopol kosalar saqlanmoqda.

Bu davrda metallga badiiy ishlov berish san'ati ham nihoyatda rivoj topdi. Movarounnahr va Xuroson shaharlari oltin, kumush va bronzadan yasalgan xilma-xil idishlar, misdan tayyorlangan uy-ro'zg'or jihozlari, qurol, harbiy anjomlar, turli zargarlik ziynatlari va ibodat bilan bog'liq buyumlar ishlab chiqa-

radigan markazlar edi. Markaziy Osiyo va Eron ustalari bronzadan yasagan buyumlar o'xshash bo'lishiga qaramay, u yoki bu texnologik va badiiy usulni qo'llashda o'ziga xos xususiyatlari ham bo'lgan. Bu ko'p jihatdan Amir Temurning harbiy yurishlari natijasida mazkur mintaqalardan ustalarning Samarqand va Movarounnahrga olib kelinishi bilan bog'liq edi. Ana shunday ajoyib amaliy san'at namunalari muzey kolleksiyasidan o'rin olgan.

Mis ko'za. Ushbu davrda misdan ishlangan keng bo'g'izli ko'zalar mashhur bo'lgan. XV asr buyumlariga bezak berishda gorizontal chiziqlar bilan idishlar tanasini qamrab oluvchi mayda islimiy naqsh ko'p uchraydi. Uning fonida forsiy bitiklar mavjud. Bu davr buyumlari qadama naqshlar bilan ham bezatilganini ko'rish mumkin.

Bulardan tashqari, muzeyda temuriylarga oid ko'plab qo'lyozma, miniatyura, astronomik asboblar, oltin tangalar, harbiy kiyimlar, gilamlar va me'moriy qoplamalar saqlanmoqda.

Davlatimiz rahbarining Qatar davlatiga tashrifi yurtimiz ma'naviy olamida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Jahonning yirik muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston san'ati tarixiga oid ashyolar o'rganilar ekan, Qatardagi boyliklarni ham

ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish muzeyshunoslik va san'atshunoslik ilmini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Bu esa tarixni unutmaslik, ajdodlar merosiga faxr-iftixor bilan munosabatda bo'lish omilidir.

MULOHAZA

MA'NAVIY HALQA

KATTA VA YOSH AVLODNI NIMA BIRLASHTIRADI?

Nilufar KARIMOVA,
Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i

Bugungi murakkab davrda mamlakatimiz aholisiga, xususan, yoshlarga turli salbiy ta'sirlarning oldini olish va jamiyatimizning har bir a'zosini ma'nan yetuk qilib tarbiyalash, huquqiy-ma'naviy dunyoqarashini, ongini rivojlantirish masalasi har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Afsuski, hammamiz ham yoshlarimizni ma'naviy tahdidlardan asrab qolish uchun, eng avvalo, ularda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarur ekanini anglay olmayapmiz.

Har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganda, jamiyatimiz, davlatimizning milliy xavfsizligi birinchi o'rinda turishini unutmasligimiz lozim. Zero, bu mavzuda gap borar ekan, avvalo, ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi, axborot oqimi — mafkuraviy tahdid, ikkinchisi, yoshlar ma'naviyati — ya'ni turli axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan ma'naviy immunitet.

Turli uchrashuv va suhbatlarda ota-onalar hamda muallimlar yoshlarimizning mafkuraviy immuniteti yaxshi shakllanmagani borasida tashvish bilan so'z yuritadi. Masalani inson omili nuqtayi nazaridan o'rganadigan bo'lsak, mafkuraviy immunitet har qanday axborot ta'siriga tushib qolmaslik, avvalo, o'sha inson ong-u tafakkuri, idroki nechog'liq o'tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog'liq. To'g'ri, hammada ham bunday qobiliyat birdek rivojlangan emas. Ammo uni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to ulg'ayguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda yoshlarning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod — milliy iftixorning shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini, o'z tarixini bilgan, ona Vatanini yuksak muhabbat bilan sevgan yoshlar axborot oqimlari ta'siriga osongina ilinib qolmaydi. Chunki bunday avlodda o'ziga xos psixologiya va yondashuv paydo bo'ladi.

Hozirgi kun yoshlari qanday tarbiya topmoqda? Ular qaysi axborot, qaysi muhit ta'sirida shakllanmoqda? Farzandlarimiz shaxs sifatida kamolga yetishi uchun yana nimalar qilishimiz lozim? To'g'risini aytish kerak, ayni paytda ko'pchilik ota-onalar turmush tashvishiga berilib ketib, bola tarbiyasiga kamroq e'tibor qaratmoqda. Albatta, ular imkon qadar farzandlari hech kimdan kam bo'lmasligi uchun sharoit yaratib bermoqda. Aytaylik, axborot texnologiyalaridan ko'proq boxabar bo'lishi uchun kompyuter sotib olib berishadi, oylik internet paketlariga ulab ham qo'yishadi. Ammo yaratilgan sharoitdan farzandlari nechog'liq maqsadli foydalanmoqda? Bu masala ba'zi ota-onalarning nazaridan bir oz chetda qolmoqda.

O'g'il-qizlarimiz telefon va internetga mahliyo bo'lib, kitob o'qishni butunlay yoddan chiqarib qo'ymoqda. Oxirgi marta qaysi asarni mutolaa qilgani haqida savol bersangiz, tutilib qolishadi. Biz bugun yoshlarimizga axborot oqimini to'g'ri yo'naltira olmasak, ular yillar davomida shakllanib kelayotgan ma'naviy qadriyatlarimizni bora-bora esdan chiqarib yuborishi tabiiy. Prezidentimiz "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz", deya bejiz ta'kidlamadi.

Yoshlarimiz ma'naviyatiga har daqiqa chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ular har qancha dunyo bilimlarini, xorijiy tillarni egallamasin, o'zligini tanimasa, Vatan manfaatlari yo'lida sadoqat bilan xizmat qilishi va begona g'oyalarga ters qaray olishiga kafolat bera olmaymiz. Har bir farzand, eng avvalo, kindik qoni tomgan tuproq qadrini yaxshi bilishi, urf-odat va qadriyatlarimizni tanishi lozim. Shundagina ularning qalbida yurtga asl muhabbat tuyg'usi kurtak ochadi.

Davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlari, davlat dasturlari barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishda muhim omil bo'lmoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan tegishli qonunchilik bazasi yaratilib, intellektual salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimiz qanchalik tariximizni, ona tilimizni astoydil o'rgansa, qalbida ma'naviy immunitet shuncha kuchli rivojlanadi.

Har qanday yot g'oyaga qarshi sog'lom fikr bilan tura oladigan, kurasha oladigan o'g'il-qizlarni tarbiyalash maqsadida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu tashabbuslarning ilk samarasini o'z ko'zimiz bilan ko'rib, guvoh bo'lib turibmiz.

Musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va kino sohasidagi turli tanlovlar, xalqaro festivallar maydonida chiniqqan iste'dodli yigit-qizlarimiz o'z ijodiy loyihalari bilan jahon hamjamiyati e'tirofiga ko'proq sazovor bo'lmoqda. Sport musobaqalarida yuksak arenalarni egallayotgan qorako'z farzandlarimiz safi kengayib borayotganini aytmaysizmi?!

Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan turli tadbirlar bois, bugun qaysi bir ota-ona bilan suhbatlashmang, farzandining ajoyib dasturchilik qobiliyati borligidan, internet olamida o'ziga xos yangiliklar yaratishga ishtiyoqi balandligidan quvonib so'zlaydi.

Kitobxon yoshlarimiz o'rtasida o'tkazilgan tanlovlar esa nafaqat yosh avlodni, balki katta avlod vakillarini ham chuqur mulohaza yuritishga, kitob bilan ko'proq vaqt o'tkazishga chorlayotgani rost.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalasi esa hozirgi kunda har bir viloyat, tuman va mahalla mas'ullarining eng birinchi o'rindagi vazifasiga aylandi. Muhimi, bu jarayonda ayollar o'z huquqlarini yanada ko'proq taniy boshladi. Tashabbus ko'rsatishda, tadbirkorlik bilan yondashishda hatto manaman degan erkaklarni ham ortda qoldirmoqda.

Maktablar, kollej va litseylar, oliy o'quv yurtlarida jahon tajribasi inobatga olingan holda takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy dunyoqarash, ijodiy hamda shaxsiy fazilatlarga ega yosh avlodni tarbiyalash o'qituvchi va murabbiylarning asosiy vazifasiga aylangan.

Mamlakatimiz yigit-qizlari xalqaro miqyosdagi tanlovlar, musobaqalar va boshqa nufuzli tadbirlarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Bularning barchasi farzandlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yosh avlodni sog'lomlashtirishga bo'lgan e'tibor samarasi ham deyish mumkin. Faoliyatimizni yanada rivojlantirgan holda targ'ibot-tashviqotga doir amalga oshirishimiz zarur bo'lgan ishlar hali anchagina. Masalan, yoshlarga oid targ'ibot-tashviqot ishlarida turli ixtisos va yo'nalishlardagi mutaxassislar ma'ruzalaridan unumli foydalanishni inkor qilmagan holda uchrashuvlarda jonli muloqot va amaliy ishlarga ko'proq e'tibor qaratish, mavjud muammo va kamchiliklarni ochiqroq muhokama qilish lozim. Qolaversa, targ'ibot-tashviqot ishlarida turli vositalarning mukammal darajada ishga solinishiga erishmoq zarur. Ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yoshlar ongi va tafakkurida milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, o'zligimizga hurmat ruhini kuchli darajada shakllantirish shart.

Bu borada kino va musiqa san'ati imkoniyatlaridan unumli foydalana olmayotganimiz ham bor gap. Muammolar yechimiga oiladagi va ta'lim maskanlaridagi ma'naviy-ma'rifiy davralar hamda suhbatlar orqali erishsak, qanday yaxshi bo'lardi...

Yashayotgan asrimizni axborot asri deb ko'p gapiramiz-u, yoshlarni yetarli darajada axborot bilan ta'minlashga ba'zida beparvo bo'lamiz. Milliy internet portallari, matbuot nashrlari faoliyatini yanada kengaytirish va jonlantirish kerak. Targ'ibot-tashviqot ishlarida yoshlarimiz imkoniyatlaridan ham unumli foydalana olish muhim. Iqtidorli yoshlarning bu qizg'in jarayonga jalb etilishi mafkuraviy ishlar samaradorligi yanada oshishiga xizmat qiladi.

O'ylaymizki, kattalar va yosh avlod o'rtasidagi birdamlik va ma'naviy hamkorlik kuchayib borar ekan, bizni tashvishga solayotgan milliy merosimizga tahdid, xudbinlik, loqaydlik, korrupsiya, ekstremizm kabi tahdidlardan yoshlarimizni asraguvchi ma'naviy qalqon ham mustahkamlanib boraveradi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
43312 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05